
Avgust – hosilga hosil qo‘shiladigan palla

Rishton tumanida klaster korxonlari va ularga a‘zo fermer xo‘jaliklari tomonidan joriy yilda 5 ming 950 gektar maydonda g‘o‘za parvarishlanmoqda.

Bu yil bahorning nisbatan seryog‘in kelgani va iyul oyidagi anomal issiq g‘o‘za parvarishida fermerlar uchun bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Aslida hech bir mavsum oson kechmaydi, har yilning o‘ziga yarasha tabiat injiqliklari, suv va boshqa masalalarda muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Shunga qaramay agrotexnika tadbirlarining o‘z vaqtida, optimal muddatlarda va sifatli o‘tkazilishi natijasida ko‘zlangan hosil yetishtirilmoqda. Ayniqsa, hosilga hosil qo‘shiladigan avgust oyida – zarbdor o‘ttiz kunlik davomida barcha paxta maydonlarida g‘o‘zani sug‘orish va ishlov berish ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda.

Rishton tuman hokimi boshchiligida sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari fermer xo‘jaliklari paxta dalalarida bo‘lib, g‘o‘za parvarishini ko‘zdan kechirishdi.

Ayni paytda g‘o‘za parvarishlanayotgan yerlarni begona o‘tdan tozalash, nihol o‘sovchi uchlarini chilpish, biologik ishlov berish davom ettirilmoqda. Kuzatuvlari davomida tuman rahbari, g‘o‘za parvarishlanayotgan yerlarni begona o‘tdan tozalash, nihol o‘sovchi uchlarini chilpish, biologik ishlov berish davom ettirilayotgan ishlarni ko‘rdi.

"Hasan Hamdam yeri " fermer xo‘jaliklari misolidagi o‘rganishlar natijasi o‘laroq, barcha agrotexnik ishlarni risoladagidek yo‘lga qo‘yish, suv tanqisligini inobatga olib, omilkorlik bilan ish yuritish, pirovardida har gektardan barakali hosil yetishtirishga doir tavsiya va topshiriqlar berildi. Tuman hokimi hosilga hosil qo‘shiladigan ayni yoz chillasida ko‘zlangan har bir agrotexnik tadbirni kechiktirmasdan sifatli bajarish barakali xirmon ko‘tarish garovi ekanligini ta‘kidlab, fermer xo‘jaliklari ishiga rivoj tiladi.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati

2022-08-12 06:40:27